



BOSHLAG'ICH SINIF TABIIY FANLAR DARSLIGINI O'QITISHDA 4 K MODEL

Usenbaeva Gozzal Azamat qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogik instituti Boshlang'ish
ta'lim fakulteti "Boshlang'ish ta'lim" ta'lim yo'nalishi 3-guruh
talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15646065>

ARTICLE INFO

Received: 01st June 2025

Accepted: 05th June 2025

Published: 11th June 2025

KEYWORDS

*Boshlang'ich sinf, tabiiy fanlar,
4 K modeli, o'qitish, o'qituvchi,
o'quvchi, ta'lim tizimi.*

ABSTRACT

*Maqolada 4 K modeli haqida ma'lumot beriladi va 4K
modelini tabiiy fan darsligida qo'llash haqida aytilib
o'tiladi.*

Boshlang'ich ta'lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo'lgani uchun ham nozik e'tibor talab etadi. Ayni shu pallada bola o'zida «o'quvchi shaxsi»ni yaratadi, maktabga va ta'lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo'lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to'plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g'oyaviy, tarbiyaviy va ma'rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi. Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg'or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan "4K" modeli asosida tayyorlandi. "4K" modelidan foydalanish ko'plab sinovlardan o'tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir.

4 K nima degani? Boshlang'ich sinflarda qo'llanilishi boshlanayotgan yangi tamoyil haqida.

4K yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta prinsipni o'z ichiga oladi:

1. Kritik fikrlash.
2. Kreativ fikrlash:
3. Kommunikativlik.
4. Kollabratsiya

Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlyandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4 K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi.

PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda "4 K"ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, ijodkorlik kabi ko'nikmalarga e'tibor qaratilgan va shu sababli ham ular xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishmoqda.

1. Kritik (tanqidiy) fikrlash: Mazkur metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikr va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga (tahlil) kuzatish nuqtai nazaridan qarashni o'rganadilar va mantiqiy fikrlash orqali o'z nuqtai nazarini, fikrini shakllantiradilar.
2. Kreativ fikrlash: O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadilar, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.
3. Kommunikativlik: O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadilar.
4. Kollaboratsiya: Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga sheriklik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga yordam beradi. Bu tamoyil o'quvchilarni jamoaviy ishlashga o'rgatadi.

Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o'quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Maktabdagi har bir dars o'quvchilar faqat fan mazmunini o'zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini rivojlantiradigan jarayondir. Boshlang'ich sinflar uchun yangi darsliklar esa kelajagimiz egalari bo'lmish yosh avlodni har tomonlama rivojlantiribgina qolmay, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ularda shakllantirishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir. Birinchi sinfda ta'lim jarayoniga ko'proq o'yin orqali yondashiladi, ma'lumotlar asosanko'rsatish-vizual tarzda yetkaziladi. 1-3 sinflar uchun taqdim etilgan darsliklarning bir qismi, xususan, tasviriy san'at, o'zbek tili va musiqiy savodxonlik bo'yicha kitoblar kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanilgan holda ishlab chiqilgan.

Tabiiy fan darslarida o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun "Sinkveyn" texnologiyasin qo'llansa bo'ladi. Chunki bu texnologiyada o'quvchilar tabiiy fanga oid so'z topib u so'zga mos keladigan 2 ta sifat, 3ta fe'l topishi kerak bo'ladi. Bu tabiiy fanni ona tili darsiga integratsiya qilib o'tishga ham yordam beradi. "Sinkveyn" texnologiyasi: Sinkveyn - fransuz tilida "5 qator" ma'nosini beradi. Bu texnologiya ma'lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish) ga yordam beradigan qofiyalanmagan she'rdir. Sinkveyn yozish qoidalari:

1-qator: Mavzu bir so'z yordamida ifodalash (ot tanlanadi)

2-qator: Mavzuni 2 ta so'z bilan ifodalash (2 ta sifat)

3-qator: Ushbu mavzu bo'yicha harakatlarni ifodalash (3 ta fe'l)

4-qator: Mavzuga munosabat, his - hayajon (jumla)

5-qator: Mavzu sinonimini bir so'z bilan takrorlash. Masalan: 1. Quyosh. 2. Zarrin, issiq. 3. Qizdiradi, yoritadi, isitadi. 4. Quyoshning zarrin nurlari olamni charog'on etadi! 5. Oftob. Ushbu texnologiya o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va kreativlikni rivojlantiradi.

Tabiiy fan darsligida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kritik fikrlashini oshirish uchun esseydan foydalansa bo'ladi. Bu essey yozishda o'quvchilar erkin mavzu bo'yicha o'z kritik fikrlashini aytib ketadi.

Essey - bu erkin shakldagi insho bolib, u muallifning biror masalaga munosabatin ifodalab, uniasoslab beradi. Esseyning mazmuni puxta o'ylangan, mantiqan to'g'ri tuzilgan, tarkiblangan (kirish, asosiy qism va xulosadan iborat) bo'lishi kerak. Muallif esseyda murojaat qilgan ma'lumotlar, faktlar, raqamlarning manbayi ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Esseyda ijodiy yondashuv sezilib turishi kerak. Esseyning tuzilishi: masalani qo'yish - fikrlash - rejalashtirish - yozish - tekshirish - takomillashtirish. Ushbu metod o'quvchilarning nutqiy-mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

Hamkorlikda o'qitishning «Birgalikda o'qiymiz» metodi 1987-yili Minnesot universiteti professorlari D.Jonson, R.Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Sinf o'quvchilari 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh darsda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriq nima'lum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarning to'liq bajarilish natijasida o'quv materialining yaxlit o'zlashtirilishiga erishiladi. Mazkur metodning asosiy prinsiplari-jamoani taqdirlash, o'quvchilarga individual yondashish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun bir xil imkoniyatlarni vujudga keltirishadi.

Tabiiy fan darsligida "Nima uchun" metodini o'quvchilarning kommunikativ fikrlash qobiliyatini oshirish uchun qo'llansa bo'ladi. Bunda o'quvchilar ikki jamoaga bo'linib oladi. 1-guruh nima uchun deb savol beradi, masalan qushlar nima uchun kuzda issiq o'lkalarga uchib ketadi? 2-guruh began savolga o'zlarining javoblarini beradi. Javoblar o'quvchilarning o'z shaxsiy fikrlaridan iborat bo'ladi. O'qituvchi javoblarini dars oxirida tahlil qiladi. Bu o'quvchilarning o'z fikrini aniq aytishga muloqat qilishga katta yordam beradi.

"Piyola" metodi O'quvchilar doira shaklida turishadi va bir-birlariga piyolada choy uzatishadi. Lekin mashqning sharti shuki, bir kishi qilgan harakatni ikkinchi kishi takrorlamasligi kerak. Masalan: kimdir piyolani qo'lini ko'ksiga qo'yib uzatadi, kimdir qo'lini orqasiga qo'yib uzatadi va hokazo... Agar kim boshqa birov qilgan harakatni takrorlasa o'yindanchiqadi. Ushbu texnologiya o'quvchilarda kommunikativlik a kollaboratsiyani rivojlantiradi.

Xulosa: Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida 4K modelidan foydalanish o'quvchilarni har taraflama rivojlantirishga yordam beradi. Bu modeldan foydalanib tabiiy fan darslarini boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'tsa, o'quvchilar kelajakda xalqora baholash sistemalaridan yuqori natijalarga erishishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni. O'RQ637-son 23. 09. 2020. Ta'lim to'g'risida (lex.uz)
2. <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/157>
3. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/barchasi-maktab-partasidan-boshlanadi-boshlangich-sinfda-4k-modeli-zamonaviy-talimga-innovation-yondashuv>